



JAMOL KAMOL MUSADDASLARI BADIYYATI

Komil Qarshiyev,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206976>

Annotatsiya: *Maqolada Jamol Kamol she'riyatida musaddas janrining tutgan o'rni, uning o'ziga xos badiiy xususiyatlari, originalligi, xalqona ohangi, musiqiyligi, milliyliigi, shuningdek, poetik transformatsion va ekzotik xususiyatlari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *Janr, ekzotika, transformatsiya, musammat, musaddas, g'azal, mavzu, g'oya, ohang, milliylik.*

Lirik turning mumtoz janrlarida barakali ijod qilgan Jamol Kamol she'riyatida musammatning murabba, muxammas va musaddas turlari uchraydi. Har bandi olti misralik she'r, ya'ni musaddas lirik kechinmani keng qamrovli ifodalashi bilan ajralib turadi. Unda qalam tebratish ulkan ijodiy salohiyat va badiiy mahorat talab etadi. Jamol Kamol musaddaslari realistik uslub qaror topgan davrda yaratilgan, shuning uchun ularda inson ichki dunyosini yanada kengroq o'zlashtirishga qaratilgan mavzu xilma-xilligi, zamonaviy adabiyot ta'siri sezilib turadi. Bunda poetik transformatsiya elementlari ko'zga tashlanadi.

Shoirning milliy istiqlolgacha va milliy istiqlo l davrida yozgan asarlarida ham g'oyaviy evrilish, turlanish sodir bo'lmagan. Shuning uchun ham adabiyotshunos *Ibrohim Haqqul* mustaqillik yillarida ro'y bergan ijodiy "turlanish"larga oid fikrini shunday bayon qiladi: "Ana shu "jarayon"ga nazar tashlansa, milliy ruh, milliy maslakka sodiq juda oz sonli shoirlar qatori Jamol Kamol ham bir g'oyaviy "maydon"dan ikkinchisiga sakrab o'tmaganligiga tan berish kerak bo'ladi".[1:14] Shoir ijodidagi mumtoz janrdagi she'rlar salmoqdorligi pirovardida miliy ruh, milliy tarovat mujassamlanganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Zero, Jamol Kamol she'rlarida milliylik xususiyati xalqning fikr tarzini yuzaga chiqargan ruhiyat tasviri bilan chambarchas bog'liq. "Shoir mutlaqo o'zga olamni tasvirlaganda ham, unga o'z milliyligidan kelib chiqib nazar tashlasa, xalq ko'zi – xalq nuqtayi nazari bilan qarasa, o'zi his qilgandek, o'zi gapirayotgandek tuyulsa, ana o'shanda milliydir", – deydi Ge gel".[6:457]

Demak, milliylik shoir shaxsiyati, o'zligining asosiy ko'rsatgichi sanaladi va asarlari zamiriga chuqur singdirilgan bo'ladi. Bunda xalq qadriyatlar i birlamchi poetik vazifa bajaradi.



Jamol Kamol ijodida aruz va barmoq vaznidagi “Oltin zina”[1:23], “Durdona” [1:58], “Hol”[1:152], “Bir kecha”[1:366], “Samarqand-u Buxoro bu”[2:26], “Toshkent taronasi” [2:27], “Kitobsiz el”[2:251], “Duo erdi, salot erdi”[4:32], “O‘qib suvratda Qur’on, bo‘lmagil siyratda Qur’onsiz...”,[5:63] va “Ozarbayjon”(musaddas shaklidagi qasida) [4:93] kabi musaddaslar borki, ular zamonaviy lirikamizni mumtoz adabiyot tarovati, milliy ruh jozibasi bilan ziynatlab kelmoqda. Bu musaddaslar mumtoz adabiyotimizdagi olti misrali musammat turidan keskin farq qilmaydi, ammo davr o‘tishi asnosida janrning ayrim xususiyatlari yangilangan yoki o‘zgartirilgan. Masalan, shoir musaddaslari mavzu va vazniy jihatdan muayyan darajada o‘zgarishlarga uchragan. Shoirning ayrim musaddaslarida epigraf qo‘llanilgan. Bu o‘z navbatida poetik transformatsiya hoodisasi bilan uzviy bog‘liq jihat sanaladi. Chunki mumtoz adabiyotdan badiiy o‘zlashtirilgan she’riy janrlarga ayrim o‘rinlarda muallif shakliy o‘zgartirishlar kiritgan.

Musammat turlari lirikaning gultoji hisoblangan g‘azal janri negizida paydo bo‘lgan. Shuning uchun ularda ishq-muhabbat bosh mavzu darajasiga ko‘tarilib, intim tuyg‘ular tasvirlangan. Ammo ijodkorning fikr arsenalidagi o‘tkir mushohadali mavzular ham davr taqozosi bilan kuylangan. Masalan, Jamol Kamol musaddaslari aksariyati an’anaviy muhabbat mavzusida bitilgan. Shu bilan birga diniy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ekzotik mavzudagi musaddaslar ham uchraydi.

Musiqiylik ustuvor, takror tarje’bandli, yengil, ko‘tarinki, xalqona ohangdagi “Bir kecha” musaddasi ishq-muhabbat mavzusida bo‘lib, u qo‘shiq qilib kuylashga mos ichki ritmik qurilishga ega:

*Boshida yulduzli, musaffo falak,
Poyida to‘lqinli Zarafshon edi,
Oy bo‘lib olamga boqarkan malak,
Ko‘zlari cho‘lpon edi, cho‘lpon edi,
Bir kecha mahvash menga mehmon edi,
Voy, uni mahvash demakim jon edi. [1:366]*

Ko‘rinadiki, musaddasda tabiat tasviri mahorat bilan go‘zal yorning tashqi badiiy portretiga tutash aks ettirilgan. Bandning umumiy mazmuni “yulduz”, “falak”, “oy”, “cho‘lpon” so‘zlari vositasida yuzaga chiqqan tanosub, tazod (bosh va poy), turg‘un tashbeh (malakning oyga mengzalishi), ruju (avval mahvash, uni inkor etib jon deyishi) kabi badiiy tasvir vositalari bilan san’atkorona ochib berilganki, bundagi mumtoz semantika va an’anaviylik shoir ijodiyotini milliy qadriyatlar daryosidan



oziqlantirgan. She'ning umumiy mazmuni yor jamoli, vasfi va visol, diydor haqida bo'lib, xalqona ohang yetakchiligi bilan ham diqqatga sazovor.

Jamol Kamolning “Duo erdi, salot erdi”, “O‘qib suvratda Qur’on, bo‘limgil siyratda Qur’onsiz...” kabi musaddaslari diniy-axloqiy mavzuda bo‘lib, ularda Allohni tanish, iymon-e’tiqodga intilish, hidoyatga chorchash, diyonatga sadoqat kabi pok islomiy e’tiqod tajallisi tarannum etilgan. Shoir besh bandli “O‘qib suvratda Qur’on, bo‘limgil siyratda Qur’onsiz...” nomli musaddasida Alloh kalomini avval mazmunan anglab, keyin unga amal qilish kerakligini XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadidlar xalqimizni savodli qilishga chorlagani kabi jo‘shib kuylaydi:

Yoronlar, yurmasak formoni oliyga, rivoj qayda?

Davoyi dardimizga chora bo‘lgaymu, iloj qayda?

Taraqqiy etmasak, qo‘l qayda cho‘zmoqqa, quloch qayda?

Va bizdek bandalarga bu jahonda ehtiyoj qayda?

Vatandoshim, kishi bo‘lgaymu komil aql-u iymansiz?

O‘qib suvratda Qur’on, bo‘limgil siyratda Qur’onsiz... [5:64]

Shoir mazkur musaddas mazmuni o‘quvchiga tiniqroq yetib borishini taminlash maqsadida musaddas uchun noan’anaviy tarzda epigraf qo‘llaydi. “*Shundaylar borki, ular Qur’on o‘qiydi, ammo Qur’on ularga la’nat o‘qiydi*” (Hadis) va “*Bir soatlik tafakkur yetmish yillik ibodatdan afzal*” (Hadis). Bu epigraflar musaddasning ma’no olamiga kiruvchi darvozaning kaliti vazifasini o‘tagan, shoir, aslida, xalqimiz uzoq yillar islomdan yiroqlashtirilgani bois iymon-e’tiqodga putur yetganligini anglatish uchun Qur’oni Karimning sodda she’riy tabdiliga qo‘l urgan, ammo Buyuk so‘zning she’riy tarjimai nashr qilinishiga tegishli fatvo bo‘limgach, u chop etilmadi, ommalashtirilmadi.

Dunyoviy va diniy bilim rivojiga erishgan Jamol Kamol: “*Aql Allohning ne’mati ekanligini, uning vositasida olamni anglash kerakligi, shu orqali inson o‘zini, o‘zligini anglashi kerak*”, – degan purhikmat g‘oyani ilgari surgan.

XXI asr globallashuv jarayonida yoshlar virtual olam asiriga, ommaviy madaniyatning tutqiniga aylanayotgan bir vaqtda kitob o‘qish maslgini ilgari surgan shoir zamon ehtiyoji yang‘lig‘ quyidagi ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi musaddasni yozgan:

Jahonda tengi yo‘q sharmandalik bo‘lgay kitobsizlik,

Xudogamas, birovga bandalik bo‘lgay kitobsizlik,

Muqarrar kambag‘allik, jandalik bo‘lgay kitobsizlik,

Xunuk odat, ayanch bir kundalik bo‘lgay kitobsizlik,



*Kitobsizlikka toqat etma, xalqim, bu xato bo‘lgay,
Kitobing bo‘lmasa, maymun senga Odam Ato bo‘lgay. [2:251]*

Hech kimga sir emaski, yoshlarimiz kitobning “kichigi”ni, telefonning “kattasi”ni olishga ishqiboz bo‘layotgan bu davrda ularni kitobga qiziqtirish davr muammosi sanaladi. Shoir mazkur musaddasida kitob orqali yoshlarimiz o‘z yurtiga o‘zi to‘ra bo‘lishini, yo‘qsa, o‘z yurtida o‘zi qul bo‘lishi muqarrarligini, o‘qib o‘rganmaslik nafaqat ma’naviy qashshoqlik, balki moddiy ne‘matlardan bebahralikni muqarrar keltirishini, hatto maymunni *Odam Ato* deb bilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Asarda ezgulikka, ma’naviy-moddiy taraqqiyotga undash da’vati, milliy o‘zlikni anglash na’rasi quyuc darajada ifodalanganki, natijada, asardan badiiy jozibadorlik, jimjimadorlik kabilarni izlash o‘rinsizlik tug‘diradi.

Jamol Kamolning ona yurt tarovati, tabiatning bemisl tasviriga bag‘ishlangan “Hol” nomli musaddasida badiiy ekzotik tasvir kutilmaganda intim tuyg‘ular bilan bog‘lanib ketadi:

*Daraxtlar ham boqishadi mehribon,
Chor atrofim – dumbul o‘rik dalasi.
Yashil olam – boshim uzra soyabon,
Olam go‘zal, men – olamning bolasi.
Termulaman armonli bir qush kabi,
Borliq-jahon ko‘zlarimga tush kabi. [1:152]*

She’rda shoirning ijodiy uslubiga monand epik holatdan lirizmga o‘tish asnosida tabiat tarovati madh etilgan bo‘lib, unda muallif o‘zining baxt-u shodligiga esh daraxtlarga termulib, sinovlarga boy dunyoning armonini qush timsolida obrazlantiradi. Musaddasning kompozitsion markazi ikki asosga qurilgan bo‘lib, dastlabki to‘rt misradagi ko‘tarinki kayfiyat so‘nggi ikki misradagi yoshlik armonlariga kontrast usulida zidlantirilgan. Bu orqali lirik qahramonning intim tuyg‘ulari tasviridagi peripetiyali holat ifoda etilgan.

Jamol Kamolning turkum she’ryatidagi badiiy ekzotik tasvirlar uning “Samarqand-u Buxoro bu” [2:26], “Toshkent taronasi” [2:27], “Ozarbayjon”(musaddas shaklidagi qasida) kabi musaddaslarida ham o‘z aksini topgan. Bular da shoir nafaqat ona yurtimizning eng diqqatga sazovor go‘shalari jamoli, balki o‘zga yurtlarning go‘zal maskanlarini ham o‘zbekona milliy ruhga o‘rab ifoda etganki, beixtiyor kishida safar tadorigi istagi paydo bo‘ladi. Shoirning quyidagi musaddasida yurtimizning ikkita qadimiy tarixiga ega madaniy markazi Nurota tog‘ tizmasining eng yuqori cho‘qqisidan nazar tashlash orqali tasvirlangan:



*Nuratoning cho‘qqisidan tashlasang nazar,
Zumrad vodiylar quyosh emib, jilva ko‘rsatar,
Oltin daryo oqib yotar, kokillari zar,
Dasht bag‘ridan Jayhun kelar unga sarbasar,
Samarqanddir, Buxorodir – oftobjamoldir,
Iymoni but, dasturxonda noni haloldir. [2:26]*

Shoir musaddasida sayohat maskanlari butun tarixiy, madaniy, geografik, tabiiy jihatlari bilan aks ettirilishi orqali ajralib turadi. Bu asarga ekzotik ruhni kiritgan. Shoir faqat “zumrad vodiylar”, “oltin daryo”, “oftobjamol go‘sha” tasviri bilan cheklanmay, uning “iymoni but”, “rizqi halol” xalqini ham xolisona madh etadi. Bunda ekzotik tasvir milliylikka uyg‘unlashadi.

Jamol Kamol musaddaslarida mavzu va g‘oya, tasvirdagi milliy va ko‘tarinki ruh asosiy tasvir planiga ko‘tarilishi natijasida ularning qat‘iy hajmi va bir qolipdagi qofiyalanish strukturasi zamonaviy she‘riyatga siljish holatlari uchraydiki, bu ularning badiiy qimmatiga putur yetkazmaydi, nisbiy, ijodni, ilhomni nazariy mezonlar bilan qoliplashdan yiroqlik belgisi sanaladi. Binobarin, shoirning Tojikiston taassurotlari tasviridagi “Sebiston” nomli she‘rining muqaddima va xotimasi musaddas shaklida yozilgan bo‘lib, umumiy hajmning markazidagi 18 misrada ijod, ilhom qudrati nazariy qoliplar ko‘rsatkichini buzib, aniq chegaralanmagan. Qolaversa, “Durdona” musaddasi ikki banddan iborat bo‘lib, a – b – a – b – v – v tarzida qofiyalangan:

*Ko‘k dengiz shovullar yel qo‘ynida mast:
Ajab boyligim bor mening bir dona.
Yo‘q oltin emas u, olmos ham emas,
Tong yulduzi kabi go‘zal durdona.
Ishqim otashidan yaratdim uni,
Yurak qonim bilan yashnatdim uni. [1:58]*

Anglashiladiki, shoir uchun janr o‘quvchiga fikr qaymog‘ini yetkazib beruvchi vosita bo‘lib, ba‘zan nazariy kategoriyalardan sikretik tasvir tamoyillariga og‘ish mumkin. Buni nazariy jihatdan poetik transformatsiya hodisasi bilan izohlash mumkin.

Xullas, Jamol Kamol musaddaslaridagi milliy tarovat mavzu rang-barangligi, hajm va qofiyadagi erkinlik, tasvir obyektidagi o‘ziga xoslik kabi ijodiy uslub qirralari uyg‘unligida namoyon bo‘lgan. Shoir musaddas janrida ijod qilish orqali milliy qadriyatlarni nafaqat she‘riy shakl, balki mumtoz leksikaga murojaat, xalqona ohang



jozibasi bilan ham zamonaviy lirikaga olib kira olgan. Bunda poetik transformatsion holatlar janrning zamonaviylashishini ifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. I жилд. Аср билан видолашув. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б. 492.
2. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. II жилд. Ёнаётган дала. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.387
3. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. III жилд. Абадият остонасида. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.461.
4. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. IVжилд. Шеър санъати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.461.
5. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. V жилд. Анвармирзо ҳикоятлари. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.455.
6. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. VI жилд. Булбулнома. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.460.
7. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. VII жилд. Шайхурраис. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2022. –Б.416.